

Date: 3rd February-2026

**HAMSHIRALIK ISHIDA ETIKA VA DEONTOLOGIK MUNOSABATLAR:
XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**

Yadgorova Gulmira Muydinovna

Farg'ona viloyati Qo'qon JST o'qituvchisi

Xamidova Zuvaydaxon Umarjonovna

Farg'ona viloyati Qo'qon JST o'qituvchisi

Kalit so'zlar: Tibbiy etika, deontologiya, hamshiralik parvarishi, bemor huquqlari, xalqaro standartlar, ICN kodeksi, bioetika, professional mas'uliyat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, hamshiralik ishida etika va deontologiya tamoyillarining o'rni, tibbiyot xodimi va bemor o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy va ma'naviy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi rivojlangan davlatlarning xalqaro tajribalari o'rganilib, O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida hamshiralarning professional xulq-atvori bo'yicha statistik ma'lumotlar keltirilgan.

Kirish

Zamonaviy tibbiyotda hamshira nafaqat shifokor yordamchisi, balki mustaqil professional sub'ekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Deontologiya (yunoncha deon - burch, logos - ta'limot) - tibbiyot xodimlarining o'z kasbiy vazifalariga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi axloqiy me'yorlar majmuidir. Xalqaro hamshiralik kengashi (ICN) tomonidan belgilangan standartlar bugungi kunda global hamshiralik etikasining poydevori hisoblanadi.

Metodologiya va statistik tahlil

Tadqiqot doirasida 2023-2025 yillar oralig'ida tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritayotgan 200 nafar o'rta tibbiyot xodimi o'rtasida anonim so'rovnomma o'tkazildi. Tadqiqot maqsadi - xalqaro etika normalarining amaliyotda qo'llanilish darajasini aniqlash.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari

Ko'rsatkichlar	Yuqori daraja (%)	O'rta daraja (%)	Past daraja(%)
ICN etika kodeksini bilish	-45%	-40%	- 15%
Bemor sirini saqlashga rioya qilish	-88%M	-10%	- 2%
Stress holatida etika normalarini saqlash	- 30%	- 55%	- 15%
Kasbiy muloqot madaniyati	60%	-35%	-5%

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, hamshiralarning nazariy bilimlari yuqori bo'lsa-da, ekstremal yoki stressli vaziyatlarda deontologik tamoyillarga rioya qilish darajasi biroz pasayadi.

Xalqaro tajribalar tahlili

1. AQSH tajribasi (ANA standartlari)



Date: 3rd February-2026

Amerika Hamshiralar Assotsiatsiyasi (ANA) tomonidan ishlab chiqilgan "Etika kodeksi" 9 ta asosiy qoidadan iborat. Bu yerda asosiy urg'u "Advocacy" (bemorni himoya qilish) tamoyiliga beriladi ya'ni, hamshira shifokor xatosini ko'rganda bemor manfaatini birinchi o'ringa qo'yishi shart.

2. Buyuk Britaniya (NMC tizimi)

Buyuk Britaniyada Hamshiralik va akusherlik kengashi (NMC) qat'iy nazorat olib boradi. Ularning tajribasiga ko'ra, hamshira har yili o'z "professional portfoliosi"ni yangilashi va unda etika bo'yicha o'tilgan treninglar sertifikatini bo'lishi shart.

3. ICN (Xalqaro hamshiralar kengashi) kodeksi

ICN kodeksi to'rtta asosiy elementga tayanadi:

- Hamshira va odamlar (bemorning qadriyatlarini hurmat qilish).
- Hamshira va amaliyot (doimiy bilim oshirish).
- Hamshira va kasbdoshlar (jamoadagi o'zaro hurmat).
- Hamshira va jamiyat (sog'liqni saqlash sohasidagi global muammolarda faollik).

Hamshiralik deontologiyasining asosiy tamoyillari

Hamshira va bemor o'rtasidagi munosabatlarda quyidagi to'rtta bioetik tamoyil hal qiluvchi ahamiyatga ega:

-Avtonomiya (Mustaqillik): Bemorning o'z muolajasi haqida qaror qabul qilish huquqini hurmat qilish.

- Zarar yetkazmaslik: Har qanday tibbiy muolajadan ko'ra bemor xavfsizligini ustun qo'yish (Primum non nocere).

- Ezgulik (Foyda keltirish): Barcha harakatlar bemorning ahvolini yaxshilashga qaratilishi.

- Adolatlilik: Tibbiy yordamni ijtimoiy kelib chiqishi va moddiy holatidan qat'i nazar teng taqsimlash.

Muammolar va yechimlar

Tadqiqot natijasida aniqlangan muammolar:

- Professional emotsional so'nish (Burnout): Bu hamshiraning bemorga nisbatan qo'pol muomalasiga sabab bo'ladi.

- Axborot konfidensialligi: Ijtimoiy tarmoqlar rivojlanishi bilan bemor rasmlari yoki ma'lumotlarini ruxsatsiz tarqalishi xavfi.

Tavsiyalar:

1. Tibbiyot oliygohlari va kollejlarida "Klinik etika" fanini xalqaro keyslar (case studies) asosida o'qitish.

2. Tibbiyot muassasalarida hamshiralar uchun psixologik yordam xonalarini tashkil etish.

3. ICN kodeksini milliy qonunchilikka yanada chuqurroq integratsiya qilish.

Xulosa

Hamshiralik ishi nafaqat texnik ko'nikmalar, balki yuksak ma'naviy mas'uliyatni ham talab etadi. Bebor hamshiraga ishonib o'z muammolarini ayta oladi, hamshira esa bularga jiddiy qaramog'i va "tibbiy sir" ni saqlay olishi muhim sanaladi. Xalqaro tajriba



Date: 3rd February-2026

shuni ko'rsatadiki, etika va deontologiya tamoyillariga rioya qilish davolash samaradorligini 25-30% ga oshiradi. Hamshiraning bemor bilan samimiy va professional munosabati - bu tibbiyotning "yuzi" hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- * International Council of Nurses (ICN). (2021). The ICN Code of Ethics for Nurses. Geneva.
- * American Nurses Association (ANA). (2015). Code of Ethics for Nurses with Interpretive Statements.
- * Fowler, M. D. M. (2017). Guide to the Code of Ethics for Nurses. American Nurses Association.
- * O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. (2022). Hamshiralik ishi bo'yicha buyruq va nizomlar to'plami.
- * Aitken, L. H., et al. (2012). Nurse staffing and education and hospital mortality in nine European countries. The Lancet.

